


В установленном
порядке проведена
с результатами данного
опроса.

“O‘zmilliybank” AJ
Komplayens tavakkalchiligi bloki rahbari
S.Nurkulovga

“O‘zmilliybank” AJ xodimlari ishtirokida o‘tkazilgan
anonim so‘rovnoma natijalari yuzasidan
MA’LUMOTNOMA

Joriy yil 5-20 iyun kunlari “O‘zmilliybank” AJ Komplayens tavakkalchiligi bloki Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi tomonidan Bank xodimlari o‘rtasida bank tizimida korrupsiyani keltirib chikaruvchi sabab va shart-sharoitlarni tahlil qilish maqsadida, **Bank xodimlari orasida**, google.forms onlayn dasturi, Bankning rasmiy telegram kanali hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar orqali anonim so‘rovnoma o‘tkazildi.


So‘rovnomada jami 1588 nafar xodim ishtirok etdi. Shundan, tizimda 1 yilgacha ishlayotganlar xodimlar 5,9 foizni, 1 yildan 3 yilgacha ishlayotganlar xodimlar 15,1 foizni, 3 yildan 5 yilgacha ishlayotganlar xodimlar 12,2 foizni va 5 yildan ortiq ishlayotganlar xodimlar 66,8 foizni tashkil etdi.



Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, Anonim so‘rovnoma o‘tkazishda ishtirok etgan jami 1588 nafar xodimlarning 1211 nafari (76,3 foizi) hududiy Bosh boshqarmalar, 377 nafari (23,7 foizi) Bosh ofis hisobiga to‘g‘ri kelmoqda.

2. Faoliyat yuritayotgan tarkibiy bo'linmangiz ?

1 588 ОТВЕТОВ




So'rovnoma natijalari tahliliga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvini oldini olish va bartaraf etish bo'yicha ichki meyoriy hujjatlar bilan tanishganliklari darajasi 94 foizni, qisman tanishganligi 4,3 foizni va tanishmaganligi 1,7 foizni tashkil etmoqda.

Bu ko'rsatkich, son jihatidan - Bosh ofis xissasida 360 nafar tanishgan, 13 nafar qisman tanishgan va 4 nafar tanishmagan, hududiy Bosh boshqarmalar hissasida 1133 nafar tanishgan, 51 nafar qisman tanishgan va 27 nafar tanishmaganligini ma'lum qilmoqda.

3. Manfaatlar to'qnashuviga oid Bankning ichki hujjatlari bilan tanishmisiz ?

1 588 ОТВЕТОВ




So'rovnoma natijalari tahliliga ko'ra, faoliyat davomida manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlar ma'lum bo'lsa, bu haqida bevosita rahbari yoki komplayens xizmatiga xabar berish lozimligini haqida xabardorlik darajasi - 96,2 foizni, xabardor emaslik darajasi esa 3,8 foizni tashkil etmoqda.

Bu ko'rsatkich, son jihatidan - Bosh ofis xissasida 368 nafar xabardor, 9 nafar xabardor emas, hududiy Bosh boshqarmalar hissasida 1160 nafar xabardor, 51 nafar xabardor emasligi ma'lum qilmoqda.

4. Faoliyatingiz davrida manfaatlar to'qnashuvi holatlari aniqlansa bu haqida bevosita raxbaringizga yoki komplayens xizmatiga ma'lumot berilishi xaqida xabardormisiz?

1 588 ОТВЕТОВ




Mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan seminarlar va o'quv materiallarini o'zlashtirish nuqtai nazaridan ko'rsatkichlarni tahlili shuni ko'rsatdiki, jami 96,7 foiz yoki 1536 nafar xodim malakadan o'tgan.

Bu ko'rsatkich, Bosh ofis xissasida - 368 nafar o'tgan va 9 nafar o'tmaganligini, hududiy Bosh boshqarmalar xissasida - 1168 nafar o'tgan va 43 nafar o'tmaganligini tashkil etmoqda.

5. So'nggi bir yil davomida mazkur yo'nalishdagi o'quv yoki seminarlarda qatnashganmisiz?

1 588 ОТВЕТОВ




Ish joyida korrupsiyaviy xavflar mavjudligi bo'yicha berilgan savolga jami 94,6 foiz yoki 1503 nafar xodim "yo'q" javobini, 5,4 foizi yoki 85 nafar xodim esa "xa" javobini bergan.

Bunda, Bosh ofis xissasida - 351 nafar "yo'q" va 26 nafar "ha", hududiy Bosh boshqarmalar xissasida - 1152 nafar "yo'q" va 59 nafar "xa" deb, ko'rsatilgani ma'lum bo'lmoqda.

6. Sizningcha, ish joyingizda korrupsiyaviy xavflar mavjudmi ?

1 588 ОТВЕТОВ




Faoliyatingiz davomida shaxsan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarga duch kelingani to'g'risida berilgan savolga aksariyat, ya'ni 96 foiz yoki 1524 nafar xodim "yo'q" javobini, 4 foizi yoki 64 nafar xodim esa "xa" javobini bergan.

Mazkur ko'rsatkich son jihatidan, Bosh ofis xissasida - 359 nafar "yo'q", 18 nafar "ha", hududiy Bosh boshqarmalar xissasida - 1165 nafar "yo'q" va 46 nafar "xa"ni tashkil etmoqda.

7. Manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarga shaxsan duch kelganmisiz ?

1 588 ОТВЕТОВ




Korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish yo'nalishida korrupsiyaviy yoki manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarga duch kelinganda xabar berish kanallari ma'lumligi xususida berilgan savolga jami 86,1 foiz yoki 1327 nafar "ha", 13,9 foiz yoki 219 nafar xodim "yo'q" javobini bergan. Faoliyatingiz davomida shaxsan manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq holatlarga duch kelingani to'g'risida berilgan savolga aksariyat, ya'ni 96 foiz yoki 1524 nafar xodim "yo'q" javobini, 4 foizi yoki 64 nafar xodim esa "xa" javobini bergan.

Bu borada, Bosh ofis xissasida - 318 nafar "ha", 51 nafar "yo'q", hududiy Bosh boshqarmalar xissasida - 1009 nafar "ha" va 168 nafar "yo'q" javobi berilgan.

8. Korrupsiya yoki manfaatlar to'qnashuvi holatlari haqida xabar berish kanallari sizga ma'lummi ?

1 546 ответов




Bank tizimidagi faoliyatingiz davomida rahbarlar yoki hamkasblar tomonidan bosim, noxolis munosabat, tanish-bilishchilik holatlariga duch kelinganligi va kuzatilganligi to'g'risida berilgan savolga 84,8 foiz yoki 1346 nafar xodim "hech qachon" javobini, 12,6 foizi "ba'zan", 2,6 foizi "xa" degan javob bilan chegaralanganlar.

Ushbu ko'rsatkich son jihatidan, Bosh ofis xissasida - 326 nafar "hech qachon", 42 nafar "ba'zan", 9 nafar "ha", hududiy Bosh boshqarmalar xissasida esa - 1020 nafar "hech qachon", 158 nafar "ba'zan" va 33 nafar "ha" javoblarini tashkil etmoqda.

9. Rahbarlar yoki hamkasblar tomonidan bosim, noxolis munosabat yoki tanish-bilishchilik holatlari kuzatiladimi?

1 588 ответов



So'rovnoma natijalariga ko'ra, quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

1. So'rovnoma natijalari bo'yicha tayyorlangan ma'lumotnoma Bankning barcha tuzilmaviy bo'linmalar rahbarlariga yetkazilib, xodimlar bilan oqilona va odilona muhokama qilgan holda kamchiliklarni bartaraf etish, mazkur yo'nalishda

malakasi kam bo'lgan xodimlarga qo'shimcha tushuncha va ma'lumotlar berish choralarini ko'rish.

2. Korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olish yo'nalishida rahbarlarning shaxsiy o'rnagi darajasida xodimlarni mas'uliyatini oshirish va bu borada joriy etilayotgan dasturlar, so'rovnoma va o'quv materiallarini o'zlashtirish masalalarida faollikni kuchaytirish.

3. Mazkur yo'nalishda amalga oshirilayotgan tadbirlar va tashkil etilayotgan malaka oshirish kurslarida xodimlarni talab darajasida ishtirok etishlarini hamda yangiliklardan doimiy ravishda xabardor bo'lishlarini alohida nazoratga olish, bu borada rahbarlar tomonidan tizimga yangi qabul qilingan xodimlarni o'zlashtirishlari o'rganib borishga qaratilgan oddiy trening savol-javob amaliyotini yo'lga qo'yish.

4. Ushbu tahliliy ma'lumotnomani axborot va ma'lumot uchun Bank rahbariyatiga taqdim etish.

Komplayens tavakkalchilik bloki
Korrupsiyani oldini olish boshqarmasi
boshlig'i v.b.



X.Usmonov